

ПСИХОДИАГНОСТИКА КАК ВАЖНОЕ ЗВЕНО ПРАКТИЧЕСКОЙ ПСИХОЛОГИИ

Шадыев Феруз Джахонович

Магистрант 2-курса кафедры психологии Бухарского государственного университета

В статье размышляется о значении психодиагностики в практической психологии.

Ключевые слова: ребенок, личность, диагноз, психодиагностика, валидность.

PSYCHODIAGNOSTICS AS IMPORTANT LINK OF PRACTICAL PSYCHOLOGY

Shadyev Feruz Jakhonovich

Undergraduate of department of psychology of the Bukhara state university

In article it is reflected on value of psychodiagnostics in practical psychology.

Keywords: child, personality, diagnosis, psychodiagnostics, validity.

PSIXODIAGNOSTIKA – AMALIY PSIXOLOGIYANING MUHIM BO'G'INI

Shodiyev Feruz Jaxonovich

Buxoro davlat iniversiteti Psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

"Psixologiya fani biz ucnun eng zarur sohalardan biri, desak, to'g'ri bo'ladi. Psixologiyani o'rganish - hayotni, insonni o'rganish degani. Kerak bo'lsa, rahbarlik qilmoqchi ekansiz, yetakchi bo'lib odamlarga ko'rsatma bermoqchi ekansiz, oldin ularning psixologiyasini har tomonlama o'rganish kerak. Buning tagida juda katta ma'no bor".

Islom Karimov

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

Umuman, psixodiagnostika muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bu borada qadimgi va dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo'lmish Hindiston, Xitoy, Misr, Vavilon, O'rta Osiyo, Gresiyadan, shuningdek, jon (ruh) haqidagi 1-kitobning muallifi

Aristoteldan va temperament (mijoz) ta'limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos psixologik salohiyatning ne chog'lik to'la-to'kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma'naviy taraqqiyot yo'liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o'z fuqarolarining ma'naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xizmat tizimining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik Markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi farmoyishi orqali qat'iy ta'kidlanganidek, bugungi kunda "odamlarning o'zliklarini chuqur anglashini, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishni, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'unlashini ta'minlash ma'naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishi lozim.

Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa pedagogik-psixologik, ayniqsa, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar olib borishga va ularning empirik natijalariga asoslanib tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi.

Hozirda shaxs va uning taraqqiyoti bilan bog'liq ko'plab muammolarni uchratish mumkin, bu esa psixodiagnostika fanining rivojlanishi va qonuniyatlar, fakt va mexanizmlarni yanada konkretlashtirishni talab qiladi.

Amaliy psixologiya tizimida psixodiagnostika fani alohida o'rin egallaydi. Chunki shaxsni har tomonlama bilish uchun avvalo uning individual psixologik xususiyatlari, o'qish, mehnat, muloqot jarayonlarida uchraydigan psixologik qiyinchiliklar, qobiliyat va qiziqishlar taraqqiyotining o'ziga xos tomonlarini yaxshi o'rganish talab qilinadi. Bu asosda esa shaxs psixik taraqqiyotining muayyan qonuniyatlarini aniqlash, konkret psixologik holat va buzilishlar sabablarini ochib berish imkoniyatlari yaratiladi.

Psixodiagnostikaning predmeti ko'pincha inson psixikasining o'ziga xosligini aniqlash maqsadida turli-tuman diagnostik metodlarni qo'llash sifatida qaraladi. Psixodiagnostika – shaxs individual psixologik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash metodlarini ishlab chiqaruvchi psixologiya fanining sohasidir.

Psixologik diagnostika fan sifatida 19 asr oxirida vujudga keldi. Xuddi shu davrda psixologiyada o'lchash g'oyasi keng tarqaldi. Psixodiagnostikaning mustaqil fan sohasiga aylanishi olimlarning insonlar psixodiagnostikasidagi individual farqlarga qiziqishining ortishi bilan bog'langan.

Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fandir. Bunda diagnoz ko'rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida tekshiriluvchining holati va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iboratdir.

Psixologik diagnoz (diagnosis – grekcha aniqlash, bilish degan ma'noni anglatadi) -

shaxs individual psixologik xususiyatlarining ayni vaqtdagi holatiga baho berish, rivojlanishni oldindan aytib berish, ya'ni prognoz qilish va psixodiagnostik tekshirish vazifalaridan kelib chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir.

Psixodiagnostik tadqiqotar amaliyotda psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi. Bular:

1. Simptomatik diagnoz bosqichi.
2. Etnologik diagnoz bosqichi.
3. Tipologik diagnoz bosqichi.

Simptomatik diagnozda dasturi mavjud bo'lgan har qanday EHM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotdan natijalar qayta ishlanadi.

Etnologik diagnoz qo'yishda biror xususiyatning mavjudligigina emas, balki uning kelib chiqish sabablari ham hisobga olinadi.

Tipologik diagnozda sinaluvchi shaxsning tuzilishida olingan natijalarning ahamiyati va o'rnini aniqlanadi.

Psixodiagnostika bir tomondan nazariy fan bo'lsa, boshqa tarafdin psixolog faoliyatining amaliy sohasidir. Nazariy fan sifatida psixodiagnostika validlik va ishonchlilik darajasi yuqori bo'lgan diagnostik vositalarni ishlab chiqish qonuniyatlarini aniqlaydi.

Psixodiagnostika psixologiyaning boshqa sohalari - umumiy psixologiya; ijtimoiy, differentsial psixologiya, psixologik maslahat, tibbiy, harbiy psixologiya, mehnat va sport psixologiyasi bilan uzviy aloqada.

Psixodiagnostika fani ta'lim-tarbiya amaliyotida, pedagogik faoliyatda alohida ahamiyatga ega. Bu sohada psixodiagnostik tadqiqotlar muayyan vazifalarni hal qiladi. Bular:

1. Diagnostika uchun zarur ma'lumotlarni olish. Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlarining ba'zi belgilarini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, bola xulq-atvorining kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari taraqqiyoti darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi.

Psixodiagnostik tadqiqotar bola psixik funktsiyalari rivojlanish darajasining, aqliy taraqqiyoti darajasi, yosh va ma'lumot bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun ham o'tkaziladi.

2. Psixik taraqqiyoti o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Psixodiagnostik tadqiqot ma'lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini anglash hamda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida o'tkaziladi.

O'yin hamda o'qish faoliyatida ko'p martalab o'tkazilgan eksperimental-psixologik tadqiqotlar bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ma'lum faoliyatning ta'sir ko'rsatkichi bo'lishi mumkin.

Bolada o'tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga ega. Chunki qo'llanilgan turli metodlarning o'quv-tarbiyaviy ta'sirini hisobga olgan holda shaxs rivojlanishi istiqbollari aniqlash imkoni yaratiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotar maxsus yoki yordamchi

maktabda o'qishi haqida masala hal bo'layotganda tibbiy pedagogik hay'at tomonidan foydalanilishi mumkin.

4. Bolalarda paydo bo'lgan yetarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda tadqiqotarni qiziqtirgan masala bo'yicha katta guruhlarda tadqiqot o'tkaziladi. Bunda olingan natijalarning statistik ishonchliligi katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, amaliy psixologiyada psixodiagnostika imkoniyatlarisiz psixologik muammoni yechib bo'lmaydi. Psixik holatlarni aniqlashda, bartaraf etishda psixodiagnostikaning o'рни beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.: “O'zbekiston”, 2006. 14-tom. – B. 121-122.
2. Nishonova Z.T. Bolalar psixodiagnostikasi. T., 1998. – B. 26-45
3. G'oziyev E.G'. Psixologiya. – T.: “O'qituvchi” 1994 . – B. 77-80
4. Рабочая книга практического психолога/ Н.Н.Ежова.-Ростов н/Д.: Феникс, 2006. – 315 с.
5. Шевандрин Н.И. Психодиагностика, коррекция и развития личности. М.: Владос, 1998. – 512 с.